



INTERNET ORQALI SHARTNOMA TUZISH

Xashimov Ravshan Rayimjonovich
Farg'ona viloyat yuridik texnikumi
“mutaxassislik fanlari” kafedrası
yetakchi o'qituvchisi, 3-darajali yurist

Anotatsiya: Maqolada butun dunyoda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, Internet orqali o`zaro aloqa o`rnatish, ma`lumotlar almashish, turli xizmatlar ko`rsatish orqali o`ziga xos virtual aloqa maydonini vujudga keltirgani, Bugungi kunda elektron hukumat, elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron pul, elektron pochta, internet OAV va boshqa tushunchalarni o`zida ifodalovchi Internet bilan uzviy bog`liq bo`lgan ijtimoiy munosabat mavjudligiga etibor qaratilgan.

Kalit so`zlar: internet, internet orqali shartnoma tuzishning xususiyatlari, elektron hukumat, elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron pul, elektron pochta, elektron raqamli imzo, Veb-saytlar orqali shartnoma tuzish, E-mail orqali shartnoma tuzish.

Аннотация: В статье отмечается стремительное развитие современных информационно-коммуникационных технологий во всем мире, создание своего рода виртуального коммуникационного пространства посредством взаимодействия через интернет, обмена информацией, предоставления различных услуг, которое сегодня неразрывно связано с интернетом, который включает в себя такие понятия, как электронное правительство, электронная коммерция, электронный договор, электронные деньги, электронная почта, интернет-СМИ и другие. акцент делается на наличие социального отношения.

Ключевые слова: интернет, особенности заключения договора через интернет, электронное правительство, электронная коммерция, электронный договор, электронные деньги, электронная почта, электронная цифровая подпись, заключение договора через веб-сайты, заключение договора по электронной почте.

Abstarct: The article focuses on the rapid development of modern information communication technologies all over the world, the creation of a unique virtual communication space through the internet, the exchange of information, the provision of various services, the existence of a social relationship that is inextricably



linked with the Internet, which today embodies the concepts of e-Government, e-commerce, e-contract, e-money, e-mail, internet media and others.

Keywords: internet, features of contracting over the internet, e-Government, e-commerce, e-contract, e-money, e-mail, e-digital signature, contracting through websites, contracting by e-mail.

Butun dunyoda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi Internet orqali o`zaro aloqa o`rnatish, ma`lumotlar almashish, turli xizmatlar ko`rsatish orqali o`ziga xos virtual aloqa maydonini vujudga keltirdi. Ushbu virtual axborot jamiyati juda ko`plab foydalanuvchilar ishtiroki etishini, o`zaro bog`langan turli shaxslar, sub`ektlar mavjud bo`lishini talab qiladi. Mazkur virtual makonda cheklanmaydigan axborot almashinadi va keng doirada ijtimoiy munosabatlar vujudga keladiki, ushbu holat Internet tarmog`ini huquqiy tartibga solishni taqazo qiladi.

Keragini olib, zararlidan voz kecha olish Internetning muhim qoidasi hisoblanadi. Chunki Internet tarmog`i o`zida jahon durdona asarlari, ilmiy manba, cheksiz ilmiy munosabat, foydali axborot, o`zaro foydali muloqot o`rnatish makoni bo`lishi bilan birga, ayrim huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkin bo`lgan hududligini ham yoddan chiqarmaslik lozim.

estoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog`idan foydalanish xizmatlarini ko`rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko`ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas`ul shaxslari tomonidan voyaga etmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning o`rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvizis ko`rsatilgan muassasalarda bo`lishiga yo`l qo`yish eng kam ish haqining o`n baravaridan o`n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo`ladi¹.

Bugungi kunda elektron hukumat, elektron tijorat, elektron shartnoma, elektron pul, elektron pochta, internet OAV va boshqa tushunchalarni o`zida ifodalovchi Internet bilan uzviy bog`liq bo`lgan ijtimoiy munosabat mavjud.

Internetning huquqiy tabiatini aniqlash uchun Internetga asoslangan munosabatlar, xususan, axborotni yaratish, tarqatish, foydalanish va iste`mol qilish bilan bog`liq xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Internet bilan bog`liq munosabatlarga veb-saytlar, domen nomlari, reklama, OAV, intellektual mulkni himoya qilish, shartnoma tuzish, elektron tijorat, elektron

¹ //O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, 3-son, 47-modda.



pochta, kompyuter virusi kabilarni ko`rsatish mumkin. Ushbu munosabatlar asosan fuqarolik huquqi sohasi bilan tartibga solinadi.

Internetdagi huquqiy munosabatlar haqida so`z yuritganda, ushbu munosabat foydalanuvchilari, provayderlar, etkazib beruvchilar va Internetning boshqa ishtirokchilarini ko`rsatish mumkin. Internetdagi huquqiy munosabatlar bu alohida toifadagi munosabatlar bo`lib, ular, birinchi navbatda, fuqarolik-huquqiy tartibga solishni taqozo etadi. Yuridik adabiyotlarda qayd etilgandiek, Internet tarmog`ida manzilni identifikatsiyalash va shaxsiylashtirish uchun qo`llaniladigan vosita sifatida domen nomlarini ko`rsatib o`tadi hamda alohida fuqarolik huquqiy tartibga olishni taqazo qiladigan ob`ekt hisoblanadi.

Internet tarmog`i nafaqat xususiy, balki ommaviy manfaatlarga ham daxl qiladi. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog`liq davlat organlari faoliyati, davlat siyosatini amalga oshirish va davlat axborot resursini shakllantirish, soliqqa tortish, elektron raqamli imzo va h.k. kiritish mumkin.

Internet tarmog`ida vujudga keladigan munosabatlarning an`anaviy munosabatlardan asosiy farqi bu virtual makonda Internet tarmog`iga ulanish asosida vujudga kelishini ko`rsatish mumkin. Ushbu holat mazkur maydondagi ijtimoiy munosabatlarni turli huquq sohasi bilan tartibga solishni istisno etmaydi hamda uning mazmuni va mohiyatini o`zgartirmaydi.

Internet tarmog`ida munosabatlarni tartibga solish barcha mavjud huquq sohalari asosida tartibga solinadi. Bunda mazkur sohalar axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi va ijtimoiy hayotga kirib kelishi bilan muayyan yangi qoidalarni tatbiq etayotganligini unutmash lozim. Masalan, Jinoyat kodeksiga yangi XX¹ bob kiritildi va ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini belgilab berdi. Elektron shaklda shartnomalar tuzish, elektron hisob-kitoblar, elektron tijorat, interaktiv davlat xizmatlari shular jumlasidandir.

Internet bilan bog`liq munosabatga daxldor bo`lgan normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi xususiyatlarini ko`rsatish mumkin:

- dunyoning hech bir mamlakatida Internetning barcha jihatlarini qamrab olgan (kodifikatsiyalangan) qonunchilik mavjud emas. Mavjud normativ-huquqiy hujjatlar tarmoq mavjud bo`lishining xususiy jihatlarini tartibga soladi;

- Internetga daxldor normalar turli qonun hujjatlarida tarqoq holda belgilangan. Jumladan, intellektual mulk huquqiga daxldor normalarni ko`rsatish mumkin;

- Internet bilan bog`liq munosabatlarni xalqaro (davlatlararo) darajada tartibga solish tizimi mavjud emas.



Internet mohiyati borasida turli nuqtai nazarlar mavjud. Internet mulk sifatida tavsiflanishi mumkin. Ushbu holatda Internet fuqarolik huquqi ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Internet ijtimoiy tuzilma sifatida ham tavsiflanishi mumkin (bunda internetdan foydalanuvchilar yig'indisi sifatida ko'riladi). Internet – axborot ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida ko'riladi. Ushbu holatda ham Internet fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Internetda yuridik shaxsga tegishli bo'lgan belgilar mavjud emas. Internet tashkiliy birlikka ega emas, biron bir mamlakatdagina amal qilmaydi, xalqaro tashkilot sifatida ham tashkil qilinmagan. Internetning mulkiy mustaqilligi ham ko'zga tashlanmaydi. Undagi moddiy va axborot resurslari turli sub'ektlarga mulk huquqi yoki mutlaq huquq asosida tegishli bo'ladi. Internetda mustaqil huquqlarga ega bo'lish, majburiyatlarni bajarish imkoniyati ham mavjud emas chunki Internetdagi har bir muloqot va undagi huquqiy munosabatlar ortida muayyan huquq layoqatiga ega bo'lgan sub'ekt turadi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi shartnoma tuzish jarayoniga, usullariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Internetda oldi-sotdi elektron shartnomalardan, elektron ko'rinishdagi turli-tuman xizmatlar ko'rsatishdan kelib chiqadigan majburiyatlar – reklama, asarni elektron jurnallarda chop etish, vositachilik faoliyati, elektron tijorat faoliyati Internet tarmog'ida keng tarqalgan. Ilgari faqat yuzma-yuz o'tirgan holda shartnoma tuzilgan bo'lsa, endilikda taraflar bevosita uchrashmagan holda elektron Auksion yoki internet orqali shartnoma tuzish amaliyoti keng tarqalmoqda.

Masalan, “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq, xarid qilish tartib-taomillari elektron do'kon; boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan Auksion; tanlov; tender; yagona etkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari tarzida amalga oshiriladi. Bunda elektron do'kon maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste'mol tovarlarining va boshqa tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus axborot portalidagi maxsus maydoncha hisoblanadi. Auksion esa, faqat elektron shaklda o'tkaziladi. Davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tanlov hujjatlarini joylashtirish orqali cheklanmagan doiradagi shaxslarga ma'lum qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bugungi kunda shartnoma tuzishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Bu esa,



internet orqali shartnoma tuzish zaruratini keltirib chiqaradi. Xo`sh, internet orqali shartnoma tuzish qanday talablarga mos kelishi zarur?

Avvalo shuni ko`rsatish kerakki, FKning 366-moddasiga muvofiq, yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo`li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo`li bilan tuzilishi mumkin. Demak, bunda eng asosiy talab hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini berishi shart. Shu boisdan internet orqali shartnoma tuzishda ushbu shartga albatta rioya qilinadi.

Qonun hujjatlariga asosan davlat ro`yxatidan o`tkazilishi talab qilinadigan shartnomalar, xususan, ko`chmas mulk bilan bog`liq bitimlar yoki patentdan o`zga shaxs foydasiga voz kechish shartnomalari; notarial tasdiqlashni talab qiluvchi bitimlar, masalan, renta shartnomasi; odatdagi tartibda vasiyatnoma tuzish, shuningdek o`zining alohida tuzilish tartibiga ega bo`lgan birja bitimlari Internet tarmog`i orqali elektron tijorat doirasida elektron shartnoma shaklida tuzilishiga yo`l qo`yilmaydi. Ularning elektron shartnoma shaklida tuzilishi shartnomaning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . – T.: “Ўзбекистон” 2023.
2. Baratov M.X. Davlat mulk huquqi. – T.: TDYUI, 2008. -B.320.
- Baratov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida davlat ishtirokining nazariy va amaliy muammolari: YUrid. fan. dokt. dis... avtoref. –T.: 2008. -B.48.
3. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. –T.: TDYUI, 2009. -B.296.
4. Imomov N. F. Intellektual mulk huquqi. –T.: 2012. -B.270.
5. Imomov N. Fuqarolik huquqida muddatlar va da`vo muddati. Monografiya. –T.: TDYUI, 2005. -B.123.
6. Mualliflar jamoasi. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. –T.: Vektorpress, 2010. -B.816.
7. Nuriddinova SH. YUridik shaxslarning bekor bo`lish usullari. –T.: TDYUI. 2007. -B.80.
8. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. –T.: TDYUI, 2004. -B.431.
9. Raxmonqulov H. Bitimlar. –T. TDYUI, 2010. -B.122.

10. Электрон таълим ресурслари

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.senat.uz>
3. <http://www.parliament.gov.uz>
4. <http://www.gov.uz>
5. <http://www.ziyonet.uz>